

**JINOYAT ISHLARIDA ADVOKAT TOMONIDAN HUQUQIY YORDAM
KO'RSATILISHINING UMUMIY ASOSLARI: HUQUQIY TAHLIL, AMALIY VA
XORIJIY TAJRIBA**

Maxmasoliyev Nuriddin Alisher o'gli

Toshkent davlat yuridik universiteti "Advokatlik faoliyati" yo'nalishi
magistratura bosqichi talabasi.

E-mail: maxmasoliyevn@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15093924>

Annotatsiya. Ushbu maqolada jinoyat ishlarida advokatlik huquqiy yordam ko'rsatishning qonuniy asoslari, huquqshunos olimlarining ilmiy qarashlari, amaliy tajribalar, xorijiy davlatlarning ilg'or yondashuvlari hamda O'zbekistonda bu boradagi islohotlar keng tahlil etiladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi va "Advokatura to'g'risida"gi Qonun normalari, tergov va sud bosqichlarida advokatning vakolatlari, odil sudlovga erishishdagi himoya huquqi, xorijiy tajribadan misollar keltiriladi. Maqolada advokatura institutining demokratik jamiyatdagi ahamiyati, kelgusida uni takomillashtirish istiqbollari va huquqni qo'llash amaliyoti yuzasidan takliflar taqdim etiladi.

Kalit so'zlar: jinoyat-protsessual qonunchilik, advokat, himoya huquqi, advokatura, tergov, sud muhokamasi, xorijiy tajriba, olimlar fikri, odil sudlov, himoya faoliyati, mustaqillik, malakali huquqiy yordam.

**ОБЩИЕ ОСНОВЫ ОКАЗАНИЯ ЮРИДИЧЕСКОЙ ПОМОЩИ АДВОКАТОМ ПО
УГОЛОВНЫМ ДЕЛАМ: ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ, ПРАКТИКА И ЗАРУБЕЖНЫЙ
ОПЫТ**

Аннотация. В данной статье подробно анализируются правовые основы оказания адвокатской правовой помощи по уголовным делам, научные взгляды ученых-правоведов, практический опыт, передовые подходы зарубежных государств и реформы в Узбекистане. В частности, будут приведены нормы Уголовно-процессуального кодекса Республики Узбекистан и Закона "Об адвокатуре", полномочия адвоката на стадии следствия и суда, право на защиту при отправлении правосудия, примеры из зарубежного опыта. В статье представлены предложения о значении института адвокатуры в демократическом обществе, перспективах его дальнейшего совершенствования и правоприменительной практике.

Ключевые слова: уголовно-процессуальное законодательство, адвокат, право на защиту, адвокатура, следствие, судебное разбирательство, зарубежный опыт, мнение ученых, правосудие, защитная деятельность, самостоятельность, квалифицированная юридическая помощь.

GENERAL BASIS OF PROVISION OF LEGAL ASSISTANCE BY A LAWYER IN CRIMINAL CASES: LEGAL ANALYSIS, PRACTICAL AND FOREIGN EXPERIENCE

Abstract. *In this article, the legal framework for providing legal assistance to lawyers in criminal cases, scientific views of legal scholars, practical experiments, advanced approaches of foreign countries and reforms in Uzbekistan are widely analyzed. In particular, examples are given of the norms of the Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan and the law “on jurisprudence”, the competence of a lawyer at the investigative and judicial stages, the right to protection in achieving justice, foreign experience. The article presents proposals on the importance of the bar Institute in democratic society, prospects for its further improvement and law enforcement practices.*

Keywords: *Criminal Procedure legislation, lawyer, defense law, advocacy, investigation, judicial review, foreign experience, opinion of scientists, Justice, Defense activities, independence, qualified legal assistance.*

Jinoyat-protsessual qonunchilik doirasidagi tartibga solish O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi jinoyat ishlaridagi eng muhim protsessual qoidalarni belgilab beradi.

JPK 47-moddasida gumonlanuvchi yoki ayblanuvchiga “himoya huquqidan foydalanish” kafolatlangani aytilgan bo‘lib, 48-moddada esa advokat (himoyachi)ning protsessual maqomi mustahkamlab qo‘yiladi. Mazkur normalar, avvalo, shaxsga nisbatan adolatli yondashuv, huquq va erkinliklarining buzilmasligi, shuningdek to‘laqonli himoya huquqidan foydalanish imkoniyatlarini yaratishi bilan ahamiyatlidir.

JPK 49-moddasida advokatning tergov, surishtiruv va sud muhokamalari jarayonida keng ishtirok etish huquqlari belgilangan¹. Xususan, advokat tergov organlaridan ish materiallari bilan tanishish, zarur dalillarni to‘plash va taqdim etish, iltimosnomalar kiritish, dalillarni so‘roq qilishda ishtirok etish kabi vakolatlarni amalga oshirish orqali gumonlanuvchi yoki ayblanuvchi huquqlarini himoya qiladi. Bunday huquqlarni kafolatlash Advokatning mustaqil faoliyat yuritish imkonini yaratib, odil sudlovni ta’minlashga xizmat qiladi.

“Advokatura to‘g‘risida”gi Qonunda keltirilgan normalar O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonuni (349-I, 27.12.1996) advokatning kasbiy faoliyatiga doir asosiy qoidalarni o‘z ichiga oladi². Ushbu qonunda quyidagilar alohida ta’kidlanadi:

- Advokatlik faoliyatining mustaqilligi;
- Advokatning kasbiy sir saqlashga bo‘lgan majburiyati;

¹ O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi (22.09.1994). JPK, 49-modda

² O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonuni (349-I, 27.12.1996).

- Davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan advokat ishlariga asossiz aralashuvlarning taqiqlanishi;

- Advokatga barcha zarur protsessual huquqlar berilishi lozimligi.

Bu huquqiy poydevor advokatning shaxsiy daxlsizligini, himoya faoliyatidagi erkinligini hamda mijoz manfaati yo'lida ish ko'rish huquqini kafolatlaydi. Chunki tergov yoki sud bosimi ostida qolgan advokatdan to'laqonli himoya harakatlari kutish qiyin. Shuningdek, ushbu qonun advokatlar palatasining vakolatlarini, advokatlik tuzilmalarini boshqarish va monitoring qilish mexanizmlarini ham belgilab beradi.

Konstitutsiyaviy va xalqaro huquqiy kafolatlar: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 116-moddasida "har bir shaxsga malakali huquqiy yordam ko'rsatish"ga bo'lgan huquq mustahkamlab qo'yilgan. Shuningdek, Konstitutsiyaning 44-moddasida odil sudlovga erishish, sud organlari qarorlari ustidan shikoyat keltirish huquqi kafolatlanadi. Ushbu normalar jinoyat ishlarida advokatning ishtirokini huquqiy jihatdan ta'minlashga xizmat qilishi bilan birga, jinoyat ishlarida shaxsning huquq va erkinliklarini kamsitishning oldini olishga qaratilgan.

Bundan tashqari, BMT Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va Fuqarolik hamda siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (1966) ham har bir shaxsning adolatli muhokama huquqiga ega ekanini belgilab, himoya huquqining poydevorini mustahkamlaydi³.

Olimlar fikri: O'zbekistonlik huquqshunos olimlar – professor M.X. Rustamov, dotsent G.I. To'xtaboyeva, professor S. Ulug'ov va boshqalar o'z tadqiqotlarida jinoyat ishlarida advokatning imkon qadar keng vakolatga ega bo'lishi shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish, aybsizlik prezumpsiyasini amalda to'liq ta'minlash uchun muhim omil ekanini qayd etishadi⁴. Xorijda esa professor L. Freedman va M. Damaska advokatlik faoliyati "adversarial" (ayblov va himoya qarama-qarshiligi) tizimda fundamental o'rin tutishini, aynan advokat ishtirok etgani uchungina ko'plab shaxslarning buzilgan huquqlari tiklanishini tahliliy isbotlaydilar⁵.

Tergov bosqichida advokatning ishtiroki: JPKning 50-moddasida gumonlanuvchi shaxs so'roq qilingandan so'ng 24 soat mobaynida himoya huquqidan foydalana olishi lozimligi ko'rsatib o'tilgan⁶. Bu bosqichda advokat:

- Mijoz bilan xoli uchrashish, uni huquqlari va majburiyatlari haqida xabardor qilish;
- Guvohlar bilan suhbat qurish, mavjud hujjatlarni tahlil qilish, dalillarni mustaqil to'plash;

³BMT Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 10-modda; Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi pakt, 14-modda

⁴Rustamov M.X., To'xtaboyeva G.I., Ulug'ov S. Jinoyat-protsessual huquq: Nazariya va amaliyot. – Toshkent, 2020

⁵Freedman L. Criminal Defense in an Adversarial System. – Oxford University Press, 2018.

⁶O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi (22.09.1994) 50-moddasi

• Tergov organlari harakatlari ustidan e'tiroz yoki shikoyat kiritish huquqlariga ega bo'ladi.

Bu omillar, o'z navbatida, tergov jarayonida himoya bilan ayblov o'rtasida muvozanatni yaratish, dalillarni baholashda xolislikni ta'minlash va gumonlanuvchi yoki ayblanuvchining huquqlarini poymol qilinishdan asrashga xizmat qiladi.

Sud bosqichida advokatning roli: Sud muhokamasi jinoyat ishining taqdirini hal etuvchi bosqich bo'lib, unda advokat:

- Guvoh, jabrlanuvchi, mutaxassislarni so'roq qilish;
- Qonun normalariga tayangan holda iltimosnomalar kiritish, ish materiallari bilan batafsil tanishish, zarur bo'lsa yana qo'shimcha dalillarni taqdim etish;
- Suddagi xulosa (bahs-munozara) so'zida gumonlanuvchi yoki ayblanuvchining zarur huquqiy manfaatlarini himoya qilish huquqlariga ega.

Ayni bosqichda advokatning chiqish so'zi muhim o'rin tutadi. Bu orqali advokat ayblovga qarshi qonuniy va huquqiy dalillarni ilgari surishi, shuningdek jazoni yengillashtirish yoki oqlov hukmini so'rashi mumkin⁷.

Apellyatsiya, kassatsiya va nazorat tartibidagi ishlar: agar sud qarori advokat tomonidan qonuniy yoki asosli deb topilmasa, JPKning 464–466, 497–503 hamda 505-moddalarida nazarda tutilgan tartibda shikoyat berishi, yuqori instansiyadan ishni qayta ko'rib chiqishni talab qilishi mumkin. Shuningdek, ayrim hollarda nazorat tartibida ham shikoyat keltirish imkoniyati saqlanib qoladi. Yuqori instansiya sudlarida advokat:

- Birinchi instansiyada e'tiborga olinmagan dalillarni bayon etish;
- Proceduraviy xatolar, qonun buzilishlarini ko'rsatish;
- Qonun normalarini keng tahlil qilish orqali adolatli qaror qabul qilinishiga erishish uchun zarur choralarni ko'radi.

Xorijiy tajriba tayanib fikrlaydigan bo'lsak:

Germaniya: Strafprozessordnung (StPO)ga ko'ra, ayrim og'ir jinoyatlarga oid ishlar bo'yicha advokat ishtiroki majburiy hisoblanadi. Xususan, Germaniya olimlari X. Shunemann va B. Schlink fikriga ko'ra, himoya huquqining to'liq ta'minlanishi tergov organlari bilan advokatning mustahkam huquqiy o'zaro munosabatlariga bog'liq.

Buyuk Britaniya: Barrister va Solicitorlar faoliyati "Criminal Procedure Rules" orqali tartibga solinadi. Ma'lum ishlar bo'yicha Barrister sudda bevosita qatnashib, huquqiy bahs yuritisa, Solicitor dastlabki tergov bosqichida hujjatlar, dalillar bilan ishlashda katta rol o'ynaydi⁸.

⁹ O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi (22.09.1994). 464–466, 497–503, 505-moddalari

¹⁰ Criminal Procedure Rules (Angliya va Uels)

Amerika Qo'shma Shtatlari: Federal Rules of Criminal Procedure advokatga dalillarni to'plash, gumonlanuvchining himoya strategiyasini ishlab chiqish, huquqni buzgan mansabdor shaxslarning xatti-harakatlarini shikoyat qilish huquqini keng beradi. M. Damaskaning ta'kidlashicha, "adversarial" tizimda advokat aslida "yuridik jangchi" sifatida ish ko'rib, odil sudlovga erishishda muhim rol o'ynaydi⁹.

Olimlar tavsiyalari: dotsent G. Mahmudov nazarida, jinoyat ishlarida advokatlik vakolatlarini yanada kengaytirish, xususan dalillarni to'plash, mustaqil surishtiruv o'tkazish huquqlarini kuchaytirish odil sudlov prinsipi amalda mustahkamlanishini ta'minlaydi. Professor S. Ulug'ov esa "himoya va ayblov o'rtasida adolatli muvozanat yo'qligi" davrida ko'plab huquqbuzarliklar sodir bo'lganini, "advokatning maxsus malakasiga tayanish" ularning oldini olishi mumkinligini tahliliy isbotlab bergan¹⁰.

Advokatura islohotlarini chuqurlashtirish: So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida advokatlarning mustaqilligini kuchaytirish, ularning kasbiy huquq va erkinliklarini ta'minlash, sud-huquq sohasida samarali islohotlar o'tkazish borasida qator hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, advokatlarning tergov davomida dalillar bilan erkin ishlashi, advokatura palatasining mavqeini oshirish, doimiy malaka oshirish kurslarini joriy etish shular jumlasidandir. Kelgusida advokatura mustahkamligini yaxshilash maqsadida:

- Advokatlarning raqamli texnologiyalar, elektron hujjat almashinuvi, masofaviy himoya imkoniyatlariga ega bo'lishi;
- Xalqaro hamkorlik (masalan, Germaniya, Buyuk Britaniya, AQSh advokatura institutlari bilan) doirasida tajriba almashinuvi;
- Talabalik davridan boshlab "mock trial" (shartli sud jarayonlari) va "moot court" (simulyatsion sud) treninglarini kuchaytirish taklif etilmoqda.

Huquqiy ongni oshirish: Advokat – odil sudlovga bevosita xizmat qiluvchi subyekt bo'lish bilan birga, aholi orasida huquqiy ongni yuksaltiruvchi yetakchi kuch hamdir. Davlat organlari bilan hamkorlikda o'tkaziladigan huquqiy targ'ibot tadbirlari, televideniye va internet orqali fuqarolarga bepul konsultatsiyalar, ixtisoslashgan huquqiy klinikalarda aholining huquqiy savodxonligini oshirish amaliyoti odatda yaxshi samara beradi. Natijada advokatura instituti ham keng qabul qilinadi.

Olimlar, mutaxassislar va xalqaro tashkilotlar roli: BMT, Yevropa Kengashi va Xalqaro advokatlar assotsiatsiyasi (IBA) kabi xalqaro tashkilotlar advokatura mustaqilligini mustahkamlash, huquqiy xizmatlar sifatini yaxshilash, advokatlarni muntazam o'qitish bo'yicha

¹¹ Damaska M. Evidence Law Adrift. – Yale University Press, 1997

¹² Mahmudov G. Jinoyat ishlarida dalillarni to'plash va baholashda himoya huquqining kafolatlari. – Toshkent, 2021.

turli dasturlar taklif etib keladi. Chet elda stajirovka o'tayotgan advokatlar sonini oshirish, xorijda malaka oshirish imkoniyatlarini yaratish orqali jinoyat protsessidagi himoya faoliyati saviyasini yangi bosqichga olib chiqish mumkin.

Jinoyat ishlarida advokatlik huquqiy yordam ko'rsatish – shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish, odil sudlovga erishish va qonun ustuvorligini mustahkamlashning eng muhim omillaridan biridir. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi va "Advokatura to'g'risida"gi Qonuni advokatga zarur huquqiy vakolatlar va mustahkam yuridik poydevor yaratar ekan, ushbu imkoniyatlardan unumli foydalanish odil sudlovga erishishni ta'minlaydi.

Olimlar fikri va xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, jinoyat ishlarida advokatning keng huquqiy vakolatga ega bo'lishi ayblov-himoya muvozanatini saqlash, aybsizlik prezumpsiyasi va huquqiy adolatga erishishning poydevori hisoblanadi.

Kelgusida advokatura institutini rivojlantirish, qonunchilikni takomillashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda xalqaro hamkorlikni kengaytirish O'zbekistonda huquqni qo'llash amaliyotini yanada takomillashtirishi kutiladi. Natijada shaxsning qonuniy manfaatlari to'liq himoyalaniib, jamiyatda huquqiy madaniyat yuksalib, davlat boshqaruvida qonun ustuvorligi mustahkamlanadi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi.
2. O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi.
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
5. BMT Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948), Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (1966)
6. Rustamov M.X., To'xtaboyeva G.I., Ulug'ov S. Jinoyat-protsessual huquq: Nazariya va amaliyot. – Toshkent, 2020.
7. Freedman L. Criminal Defense in an Adversarial System. – Oxford University Press, 2018
8. Damaska M. Evidence Law Adrift. – Yale University Press, 1997.
9. Germaniya Jinoyat-protsessual qonunchiligi (Strafprozessordnung).
10. Criminal Procedure Rules (Angliya va Uels), 2015 y.
11. Federal Rules of Criminal Procedure (AQSh).
12. Mahmudov G. Jinoyat ishlarida dalillarni to'plash va baholashda himoya huquqining kafolatlari. – Toshkent, 2021.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari (advokatura va odil sudlovni rivojlantirishga oid).
14. Xalqaro advokatlar assotsiatsiyasi (IBA), BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP), Yevropa Kengashi materiallari (advokatura mustaqilligiga doir).